



UO'K: 398(575.112)+82-94

FARG'ONA DOSTONCHILIK MAKTABI TARIXIGA DOIR BA'ZI MA'LUMOTLAR
НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ ОБ ИСТОРИИ ФЕРГАНСКОЙ ЭТНИЧЕСКОЙ ШКОЛЫ
SOME INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF THE FERGHANA ETHNIC SCHOOL

Sherali Qo'ldashev¹ 

¹O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy hodimi,
Tarix fanlar doktori

Bosit Umarxodjayev² 

²O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti mustaqil tadqiqotchisi

Аннотация

Maqolada, Namangan dostonchilik maktabiga oid ba'zi ilmiy mulohazalar berilgan. Tadqiqotlar tahlili natijasida bu ushbu maktab tarkibiga kiruvchi Pop dostonchilik maktabi va uning namoyondasi Madrahim baxshi Boltaboyev faoliyati haqida yangi ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, bu borada yangi tadqiqotlar o'tkazilishi va ilmiy nashrlar taqdim qilinishi lozimligi ham xulosa qilingan. Bunda og'zaki va arxiv materiallari, ilmiy tadqiqot institut va muzey fondlarida saqlanayotgan doston namunalarini ham o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

Аннотация

В статье даются некоторые научные комментарии о наманганской эпической школе. В результате исследовательского анализа получены новые сведения о деятельности эстрадно-эпической школы, входящей в состав этой школы, и ее выразителя Мадрахима Бахши Болтабоева. Также был сделан вывод о необходимости проведения новых исследований и представления научных публикаций в этой связи. Устные и архивные материалы, научные исследования показывают, что необходимо изучать былины, хранящиеся в фондах институтов и музеев.

Abstract

The article provides some scientific observations on the Namangan school of epic poetry. As a result of the analysis of the research, new information was provided about the Pop school of epic poetry, which is part of this school, and the activities of its representative Madrahim Bakhshi Boltaboev. It was also concluded that new research should be conducted in this regard and scientific publications should be presented. This indicates the need to study oral and archival materials, samples of epic poetry stored in scientific research institutes and museum funds.

Kalit so'zlar: doston, Namangan dostonchilik maktabi, Ko'rnos, Pop tumani baxshilari, Madrahim baxshi Boltaboev, tahlil, tadqiq, xulosa.

Ключевые слова: эпос, Наманганская эпическая школа, Корнос, бахши Попского района, Мадрахим бахши Болтабоев, анализ, исследование, вывод.

Key words: epic, Namangan school of epic poetry, Kurnos, Bakhshis of Pop district, Madrahim Bakhshi Boltaboev, analysis, study, conclusion.

KIRISH

Inson yaralibdiki, ibratga intilib, tarbiyalanib yashaydi. Tarbiyaning asosiy vositasi esa diniy va dunyoviy bilim bo'lib, xalq og'zaki ijodi ana shu bilimlarning tashuvchisidir. Doston, ertak, rivoyat, maqol, matal, qo'shiq, topishmoq, xalq o'yinlari, tez aytish, qasida, lof, askiya kabi xalq og'zaki ijodi janrlari og'izdan-og'izga o'tib, rivojlanib kelgan.

Bu o'lmas asarlar xalqimizning ma'naviy hayoti badiiy ifodasi o'laroq yashashda davom etyapti. Xalqimiz tomonidan "Go'ro'g'li", "Yozi bilan Zebo", "Alpomish" singari o'nlab dostonlar yaratilgan.

Doston ijrochisi baxshi-shoir – qo'shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan avlodga yetkazuvchi san'atkor, xalq dostonchisidir. Baxshi xalq turmushi va madaniyatini, o'zi yashab turgan yurt tarixini va biror soz chalishni bilishi, hofizlik san'atni puxta egallagan bo'lishi kerak. U jonli xalq tilining turli shakllaridan, so'z o'yinlari va qochirimlardan, xalq maqollari, iboralaridan unumli foydalana olishi lozim. Tinglovchilarni o'ziga rom etuvchi ohang topa bilishi, dostonni jozibali va qiziqarli qilib aytishi aslida xalq dostonini kuylashining asosiy talablaridan

TARIX

xisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida tabiiy iste'dod, kuchli idrok, muntazam ravishda qunt va chidam bilan mashq qilishni talab etadi. Jumladan, Po'ltan shoir yetmishdan ortiq dostonni yoddan bilgan. Har bir doston ikki-uch ming satrdan tortib, o'n-o'n besh, hatto yigirma ming misragacha she'ri, qariyb shuncha prozaik qismni ham o'z ichiga olishini hisobga olsak, xalq baxshilarining salohiyati, hayratomuz yodlash va esda saqlash qobiliyati, ijod qilish qudrati o'z-o'zidan ayon bo'ladi. O'zbekiston xalq baxshilari Shoberdi Boltaev, Abdunazar Poyonov, Boborayim Mamatmurodov, Qora baxshi Umirov, Abduqahhor va Abdumurot Rahimovlar, Shomurod Tog'aev, Ziyodulla Islomov, Norbek baxshi Normetov betakror ijrolari bilan baxshichilik san'ati rivojiga munosib hissa qo'shdilar.

Yurtimizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi xududlarida baxshichilik san'ati rivojlangan bo'lib, hozirgi kunda Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, Janubiy Tojikiston, Xorazm hamda Qoraqalpog'iston dostonchilik maktablari mavjud. Ular bir-biridan ijro usullari va repertuarlari bilan farqlanadilar. Shuningdek, Farg'ona vodiysida ham dostonlik maktablari faoliyat olib borgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Farg'ona vodiysi xalq og'zaki ijodini o'rganish borasida Tojiboy G'oziev, Robiddin Ishoqov, Otash Xolmirzaev, Abdushukur Sobirovlar bir qator ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar. Shuningdek Farg'ona dostonchiligi avval ham bir necha tadqiqotchilar, jumladan, T.O. Yunusov, B.Karimov, M.Afzalov, S.Ibrahimov, F.Abdullayevlar tomonidan o'rganilib, ular o'z davrida mashhur bo'lgan Bo'ri Sodiq o'g'li, Haydar Boycha, Razzoq baxshilarni kashf qilganlar. Ulardan "Alp Manas", "To'lap Botir", "Avazning tug'ilishi", "Avazxonning arazlashi" kabi dostonlarni yozib olganlar.

XX asarning 60-yillarda vodiya ekspeditsiya uyushtirilgan va yangi xalq baxshilari borligi aniqlangan. Bu ekspeditsiya natijasida Namangandagi Chortoq tumanida joylashgan "Ko'lbuqon", Uchqo'rg'onda joylashgan "Qayqi" dostonchilik maktablarida tengi yo'q dostonchi va sannovchilar aniqlangan.

O'zining butun umri va ijodiy faoliyati davomida Farg'ona dostonchiligining Namangan dostonchiligi tarmog'ini o'rgangan shoir va olim, folklorshunos Otash Xolmirzaev bu haqida "bu vohada dostonchilik rivojlangan, mtexnika sivilizatsiyasi va yozma adabiyot taraqqiyoti xalq og'zaki ijodini sustlashishiga olib keldi", deb yozgan edi. Shunga qaramay bu xudud dostonchiligi o'rganishga loyqlik darajasini saqlab qolgan.

Namangan dostonchilarining san'atkorligi shundaki, ularning xalq g'oyasi va badiyatini bir butun holda aks ettirib kuylaganlar. Ko'pchilik baxshilar esa Qo'rg'on va Bulung'ur dostonchilik maktablari namoyandalari Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan, Islom shoir Nazar o'g'li badihago'y dostonchilari traditsiyalarini davom ettirganlar. Natijada birinchidan, doston obrazlari va syujetlarida, tasvirlari va til tuzilishlarida o'zgacha yangiliklar yuzaga kelgan shu bilan birga yangi obrazlar bilan boyitilgan. Ikkinchidan, barcha dostonlarda "Go'ro'g'li" turkum dostonlari an'analari to'la saqlangan. Uchinchidan, umumiy yo'nalishda siyosiy, ijtimoiy jarayondan kelib chiqib yangi dostonlar ham yaratilgan.

Namangan xalq dostonchiligida "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Ravshan", "Avaz", "Gulnor pari", "Dalli", "Zulxumor" kabi xalq qahramonlari vodiya xarakterda kuylanadi.

Folklorshunos olimlar tomonidan Namangan viloyati hududida quyidagi dostonchilik markazlari aniqlangan: 1. Ko'lbuqon 2. Sayram 3. Ariqmo'yin 4. Elatan 5. Go'ravon 6. Yakka ijrochilar (4, 32).

Tadqiqotchi olim M. Sulaymonovning yozishicha, "Ariqmo'yin (Ariqbo'yi) dostonchilik markazi. Bu markazga mansub baxshilar Chust tumanidagi Olmos qishloq fuqarolar kengashiga qarashli Ariqmo'yin qishlog'ida va uning atrofida yashagan baxshilardir. Bu markazga Ariqmo'yin qishlog'ida yashagan Arslon baxshi Murodov asos solgan. Uning bir necha shogirdlari bo'lib, shulardan biri Mamadrayim baxshi Boltaboev juda mashhur bo'lgan. U asli Kosonsoy tumanining Qorasuv qishlog'ida yashagan, keyin Arslon shoirdan baxshilik sirlarini o'rganadi. Bu baxshilar repertuarida ham «Alpomish», «Qunduz va Yulduz», «Avazxon» singari o'nlab dostonlar mavjud"(4, 52). Biroq, bshqa bir folklorshunos tadqiqotchi Otash Holmirzaevning fikricha, "Namangan dostonchiligida muhim rol o'ynagan dostonchilik maktablaridan biri Ko'rnos (Pop tumani) dostonchilik maktabidir. Bu yerda o'zbek xalq dostonlarining barchasini kuylagandan biri Madrahim baxshi Boltaboevdir. Baxshi bilan bo'lgan suhbatlarimiz va uning 70-yillik yubileyi o'tayotgan kunlarda qilgan muloqotimiz tufayli Madrahim baxshi Ko'rnos va uning atroflaridagi qishloqlarda doston aytuvchi chorvador kishilar bo'lganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik", deb yozgan(5, 11). Madrahim baxshi Boltaboev Pop

tumani Ko'rnos qishlog'ida tug'ilgan. M. Sulaymonov yozganidek, Kosonsoy tumanining Qorasuv qishlog'idan bo'lmagan. Shuningdek, uning ustozlari Arslon baxshi Murodov emas, balki ko'rnoslik Urayim baxshi bo'lganligini qayd etish lozim. Demak, bundan ko'rinadiki, Pop tumanida alohida dostonchilik maktabi bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Bu borada hali yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Madrahim baxshidan yozib olingan og'zaki ma'lumotlarda, "Pop tumanining yaylovlari va chekka qishloqlarida ko'pgina sannovchi, dostonchilar bo'lgan. Ularning ustozlari Urayim baxshi bo'lgan. Shuningdek, Yaxshimurod, Ibrohim, Bolavoy degan baxshilar o'tganligi haqida ma'lumotlar bor. To'g'ri bu baxshilar mukammal o'rganilmagan, ulardan asarlar ham yozib olinmagan. Shunga qaramay, Pop dostonchilari ham umumozbek xalq og'zaki ijodiga munosib hissa qo'shganlar, deyishga asos bor. Zero, bularning eng keyingi davomchisi Madrahim baxshi ijodini o'rganish va yozib olish davrida Pop tumani xududida ham xalq og'zaki ijodi materiallari juda maroq bilan kuylanganligiga amin bo'ldik"(5, 11). Madrahim baxshi 1930-yillarda "Yangi chorva" xo'jaligida cho'ponlik qilgan. Shu paytdan boshlab xalq og'zaki dostonlari va termalarini ijod etib kuylab yurgan. "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Malikai ayyor", "Kuntug'mish" kabi dostonlarni mahorat bilan kuylab el xurmatiga sazovor bo'lgan. 15-yil davomida Namangan davlat pedagogika instituti (hozirgi NamDU) talabalariga doston termalari bo'yicha dars bergan. Chorkesardagi 3, 22, 31 maktablarda ham musiqadan dars bergan. Qirg'izistonda o'tkazilgan baxshilar ko'rik-tanlovida birinchi o'rinni egallagan. 1977-yilning mart oyida Uyg'ur qishlog'ida uning 80-yillik yubileyi o'tkazilgan. Baxshi 1988-yilda 108 yoshida vafot etgan (6, 211). Biz bu borada Pop tumanidagi ba'zi baxshilar haqida ma'lumotlar yig'dik. Shulardan biri Mamatberdi hofiz Olimali baxshi o'g'li 1929-yil 10-martida G'urumsaroy qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Olimali baxshi O'rinov "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Rustami doston" kabi dostonlarni mohir ijrochisi bo'lgan. Onasi Norxoloyim O'risheva jamoa xo'jaligida sut sog'uvchi bo'lgan. Qo'shiqchilik va musiqa asboblarni chalishni otasi, marg'izorlik Mamadali mashshoq, Qamriddin changchi, poplik Mamajon va Jo'ravoy g'ijjak, Abduvoid va Toshkanboy naychilardan o'rgangan. U "Tohir va Zuhra", "Oshiq G'arib", "Ravshan va Zulhumor" hamda Alisher Navoiy, Furqat, Hamzaning g'azallarini kuylagan. 2004-yil 76 yoshda vafot etgan(6, 212).

XULOSA

Farg'ona dostonchiligining tarqalishi genezisi o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti asosiga qurilgan bo'lib, u o'ziga xos qiyofasi bilan bugungi kungacha ma'lum. Biroq, ayni paytda vodiya xalq dostonchilari yo'q. Shuningdek, Pop tumanidagi dostonchilik maktabi ham hozirda qayta tiklanmagan. Demak, bu borada ilmiy tadqiqot va dala materiallari to'plash ishlarini hali davom ettirish lozim. Bunda quyidagi ishlarni amalga oshirilishi lozim:

1. Pop tumanidagi Ko'rnos, Chorkesar, Madaniyat, Xonobod, G'urumsaroy kabi qishloqlarda istiqomat qilayotgan baxshilar avlodlaridan dala materiallarini yozib olish lozim.
2. Pop tumanida faoliyat olib borgan xalq baxshilari, jumladan, Madrahim baxshi Boltaboyevning hayoti va faoliyatini uning merosi va arxiv materiallaridan foydalanib qayta tiklash lozim.
3. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, O'zbek tili va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi va San'atshunoslik instituti fondida yozib olingan, saqlanayotgan dostonlar namunalari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedova O., Sultonova S. Vodiy baxshichilik maktablari faoliyatini o'rganish va tiklash // Tadqiqot va innovatsiyalar jurnali. 2023-yil. 1-soni. – B. 65-67.
2. Маткаримов М., Қурбонov Қ. Ғурумсаройнома. 1-китоб. – Фарғона., 2005. – 320б.
3. Наманган халқ оғзаки ижоди намуналари. Тўпловчилар Т. Ғозибоев., А. Собиров. – Наманган., 1993. – 220б.
4. Сулаймонов М. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Академик лицейлари талабалари учун. – Наманган., 2012. – 189б.
5. Холмирзаев О. Адибнинг уч куни. Эсдаликлар, илмий ва методик мақолалар. – Наманган., 2010. – 83б
6. Қўлдашев Т., Қўлдашев Ш. Поп тумани тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2020. – 272б.